

YAGONA TA’LIM MUHITI SHAKLLANISHIDA OTA-ONA, O’QITUVCHI VA O’QUVCHI HAMKORLIGI

Kenjaboyeva Muxtasarxon Muxtorjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada yagona ta’lim muhitini shakllantirishda ota-ona, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi o’zaro hamkorlikning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Muvaffaqiyatli ta’lim jarayoni uchun uch tomonning uzviy aloqasi zarurligi, ayniqsa oilaviy muhit va maktab muhitining uyg‘unlashuvi bolaning shaxsiy rivojiga ta’siri keng yoritiladi. Shuningdek, samarali hamkorlikni tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va model yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim muhiti, ota-ona ishtiroki, o’qituvchi hamkorligi, o’quvchi faoliyati, oilaviy tarbiya, maktab-oila aloqasi, uzviy integratsiya.

Аннотация: в этой статье представлен анализ педагогической значимости сотрудничества между родителями, учителями и учащимися в формировании единой образовательной среды. Гармонизация трех партий, особенно семейная окружающая среда и школьная среда, широко охватывается гармонизацией трех партий, особенно личного развития ребенка. Существуют также практические рекомендации и модельные подходы к организации эффективного сотрудничества.

Ключевые слова: образовательная среда, родительское партнерство, преподавание сотрудничества, школа, образование в семье, контакты в школьной семье, интеграция

Ta’lim sifati nafaqat mакtabdagi darslar, balki oiladagi muhit va o’quvchining psixologik holatiga ham bog‘liq. O’qituvchi, ota-ona va o’quvchi o’rtasidagi faol hamkorlik orqali yagona ta’lim muhiti shakllanadi. Bu muhitda har bir ishtirokchi o‘z rolini aniq anglab, o’zaro ishonch va mas’uliyat asosida harakat qilsa, ta’lim jarayonining sifati va natijadorligi sezilarli darajada oshadi. Ta’lim tizimi biryoqlama emas, balki uch tomonlama muloqot va integratsiyani talab qiladi.

Ota-onaning ta’limdagi ishtiroki: asosiy jihatlar.

Ota-onaning ta’lim jarayonidagi ishtiroki, avvalo, bola ta’limiga bo‘lgan ijobiy munosabat, kundalik hayotdagi qo’llab-quvvatlash, maktab bilan muntazam aloqada bo‘lish orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon bolada ijtimoiy mas’uliyat hissi, darsga mas’uliyatsizlikdan qochish va o’qituvchiga nisbatan ishonch uyg‘otadi. Ota-onaning farzandi bilan suhbat qurishi, uy vazifalarida nazorat o’rnatishi, o’quv jarayoniga bevosita jalg qilinishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

O’qituvchining roli va faoliyatining koordinatsiyasi.

O’qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy jarayonning bosh koordinatori hisoblanadi. U ota-onani ta’limiy faoliyatga jalg qilishi, o’quvchi haqida muntazam ma’lumot berishi, boladagi o’zgarishlarni aniqlab, kerakli yo‘nalishda maslahatlar taklif

qilishi lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchi har bir o‘quvchining ijtimoiy-madaniy holatidan xabardor bo‘lishi, oilaviy omillarni inobatga olgan holda individual yondashuv asosida ishlashi kerak.

O‘quvchi – faol subyekt sifatida.

Ta’lim muhiti o‘quvchi uchun xavfsiz, qiziqarli va rag‘batlantiruvchi bo‘lishi zarur. O‘quvchi bu muhitda faqat bilim oluvchi emas, balki muhokama ishtirokchisi, qaror qabul qiluvchi, o‘z fikrini ifoda eta oladigan faol subyektga aylanishi kerak. Bu esa faqat o‘qituvchi va ota-onalari hamkorlikda shart-sharoit yaratgandagina ro‘yobga chiqadi.

Yagona ta’lim muhitini shakllantirishda quyidagi tamoyillar muhim:

- Ochiq va doimiy muloqot (uch tomonlama aloqa)
- Ishonch va o‘zaro hurmat
- Muntazam axborot almashinushi (elektron kundaliklar, ota-onalar yig‘ilishlari, individual suhbatlar)
- Hamkorlikda maqsad qo‘yish va baholash
- Tarbiyaviy ishlarni koordinatsiyalash

Bunday tizimda maktab va oila o‘zining mustaqil, ammo bir-birini to‘ldiruvchi vazifalarini uyg‘unlashtiradi. Shu orqali bola rivojlanishining barcha jihatlari — bilim, axloq, muloqot, psixologik holat, motivatsiya — kompleks tarzda shakllanadi.

XULOSA:

Yagona ta’lim muhiti — bu nafaqat maktab devorlarida mavjud bo‘lgan ta’lim maydoni, balki bola ishtirok etadigan barcha sotsial muhitlar birligi hisoblanadi. Unda o‘qituvchi — yetakchi, ota-onalari — qo‘llab-quvvatlovchi, o‘quvchi esa markaziy subyektdir. Ana shunday holatda hamkorlikka asoslangan ta’lim modeli samarali natijalar beradi. Bu esa o‘z navbatida, barkamol avlodni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Н.Р. Bolalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik asoslari. — Toshkent: Fan, 2021.
2. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. Hasanboeva M.Q. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.